

MALAKA KOMISIYASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Imamov Zuxridin Achilbayevich
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining
Andijon akademik litseyi o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi advokatlar palatasi huzuridagi malaka komissiyasi va uni yanda takomillashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Advokatura, malaka komissiyasi, advokatlik imtihoni, advokatlar palatasi.

Abstract: This article provides the qualification commission under the Chamber of Advocates in the Republic of Uzbekistan and the possibilities of its further improvement are considered.

Key words: Advocacy, qualification commission, bar exam, bar association.

Mamlakatimizda so'nggi ikki yil ichida advokatura sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu xizmat sifati va samaradorligini mutlaqo yangi bosqichga ko'tardi.

To'g'ri, undan oldingi yillarda ham jahbaga e'tibor bo'lgan. Masalan, 2008 yilda O'zbekiston advokatlar assotsiatsiyasi negizida barcha advokatlar majburiy a'zoligiga asoslangan, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tashkil qilingan edi. Uning huquqiy maqomi, maqsad, vazifalari, a'zolari huquq va majburiyatları belgilab berildi. Tan olish kerak, orada advokatlik tuzilmalari ushbu yo'nalishda yaxshi natijalarga erisha olmadi. Advokatlar palatasining advokatura instituti himoyachisi sifatidagi roli pasayib ketdi. Ayni chog'da tergov va sud organlarida advokatlarning shikoyatlarini ko'rib chiqishda turli to'siqlar kelib chiqqani, bilim, tajriba yetishmasligidan advokatlar tomonidan qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilgani ham bor gap. Bu fuqarolarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Yurtimizning har bir hududida, advokatlar palatasi negizida tegishli malaka komissiyalari tashkil etilgan bo'lib ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 24.03.2009-yilda kuchga kirgan 1921-sonli "O'zbekiston Respublikasi advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida" gi buyrug'i asosida olib boriladi. Ushbu normativ huquqiy hujjatga asosan malaka komissiyalari quyidagilarni amalga oshiradi:

Malaka komissiyalari:

advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxslardan (bundan keyingi o'rnlarda talabgor deb yuritiladi) malaka imtihonini qabul qilish;

advokat qasamyodini qabul qilish;
advokat maqomini to‘xtatib turish va tiklash;
advokatga malaka darajasi berish;
advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan murojaatlarni ko‘rib chiqish;

advokatlar tomonidan qonunchilik hujjatlari talablari, Advokatlarning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilganligi to‘g‘risidagi intizomiy ish yuritishni ko‘rib chiqish uchun tuziladi.

Ushbu bandning oltinchi xatboshisida nazarda tutilgan advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan murojaatlar deganda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning taqdimnomalari va xat-xabarlari, advokatlarning xatti-harakatlariga oid boshqa murojaatlar tushuniladi¹.

Malaka komissiyasi yuqoridagi buyruqning tegishli bandiga asosan quyidagicha tashkil etiladi:

Malaka komissiyalari O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalarining (bundan keyingi o‘rinlarda hududiy boshqarmalar deb yuritiladi) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarining (bundan keyingi o‘rinlarda adliya organlari deb yuritiladi) qo‘shma qarorlari bilan hamkasblari orasida hurmatga sazovor advokatlar, shuningdek huquq sohasidagi tajribali mutaxassislar orasidan toq miqdorda tuziladi.

Yuqorida ko`rsatilgan buyruqga asosan, malaka komissiyasi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagicha ish yuritadi:

talabgorlar, advokatlar va boshqa manfaatdor shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqadi;

zarur bo‘lganda, manfaatdor shaxslar va tegishli tashkilotlardan qo‘srimcha hujjatlarni so‘rab oladi;

talabgorlar tomonidan malaka imtihonlari topshirilishi natijalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi;

talabgorlar tomonidan advokat qasamyodi qabul qilinishi natijalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi;

advokat maqomini to‘xtatib turish va tiklash to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

advokatga malaka darajasi berish va uni bekor qilish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha intizomiy ish yuritishni qo‘zg‘atish yoki intizomiy ish yuritishni qo‘zg‘atishni rad qilish haqida qarorlar qabul qiladi;

¹ Adliya vazirining 24.03.2009-yilda kuchga kirgan 1921-sonli “O‘zbekiston Respublikasi advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” gi buyrug‘i

advokatlarga nisbatan intizomiy ish yuritishni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

Malaka komissiyalarining tarkibi hududiy boshqarmalar va adliya organlari rahbarlarining qo‘shma qarorlari bilan hamkasblari orasida hurmatga sazovor advokatlar, shuningdek huquq sohasidagi tajribali mutaxassislar orasidan 7 — 9 kishidan iborat tarkibda ikki yil muddatga tasdiqlanadi. Bunda 7 kishidan iborat komissiya a’zolarining kamida 4 nafari, 9 kishidan iborat komissiya a’zolarining kamida 5 nafari advokat bo‘lishi lozim. Malaka komissiyalari tarkibiga kelishuv asosida sud, adliya organlari hamda boshqa tashkilotlarning huquq sohasidagi tajribali xodimlari jalb etiladi.

Malaka komissiyasi raisi va o‘rinbosari komissiyaning birinchi yig‘ilishida a’zolar umumiyligi sonining oddiy ko‘pchilik ochiq ovoz berishi orqali malaka komissiyasi a’zolari orasidan saylanadi. Malaka komissiya raisligi va uning o‘rinbosarligiga nomzodlar ovoz berishda qatnashmaydilar².

Malaka komissiyasi raisining o‘rinbosari malaka komissiyasining majlisida rais hozir bo‘lmagan hollarda raislik qiladi.

Rivojlangan chet el mamlakatlarida malaka komissiyalari quyidagicha faoliyat olib boradilar:

Germaniyada: . DAV nemis advokatlik kasbini ifodalaydi va Germaniyadagi barcha 160 000 advokatlarni va chet eldagisi nemis advokatlarini birlashtirishga qaratilgan. Hozirda uning ilovasi mavjud. 259 ta mahalliy advokatlar assotsiatsiyasida tashkil etilgan 66 000 ta individual a’zolar, ulardan 13 tasi Germaniyadan tashqarida joylashgan (Braziliya, Frantsiya (2), Gretsya, Italiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Polsha, Portugaliya, Ispaniya, Turkiya, Ukraina va Buyuk Britaniya)³.

Shtat oliy sudining vakolatiga kiradigan hududda ishlashga qabul qilingan barcha advokatlar advokatlar palatasiga a’zo bo‘ladilar. Federal sudda ishlashga qabul qilingan advokatlar maxsus palataga a’zo bo‘lishadi. Har bir mahalliy palataga yetti kishidan iborat kengash boshchilik qiladi. Hay’at a’zosi 35 yoshga to‘lgan, advokaturada 5 yillik uzlusiz ish stajiga ega saylangan advokat bo‘lishi mumkin. Palata Kengashi a’zolari to‘rt yil muddatga saylanadi. Federal sud huzurida faoliyat yurituvchi Advokatlar palatasi mahalliy palatalarning tuzilishiga o‘xhash tuzilmaga ega, yagona farqi shundaki, Advokatlar palatasi o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotni departamentga emas, balki federal vazirga taqdim etadi. Federal va mahalliy palatalarning faoliyati ustidan davlat nazorati funktsiyalari asosan qonunlar va

² Adliya vazirining 24.03.2009-yilda kuchga kirgan 1921-sonli “O‘zbekiston Respublikasi advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” gi buyrug‘i

³ Екатерина Свеклова-Богданова “Адвокатура в Федеративной Республике Германия”

palataning nizomiga rioya etilishini, shuningdek, muayyan palataga yuklangan vazifalarning bajarilishini tekshirish bilan cheklanadi.

Advokatlarga nisbatan intizomiy jazolar har bir advokatlar palatasida tuzilgan faxriy sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Aybdor advokatlarga nisbatan faxriy sudlar quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashi mumkin: ogohlantirish, tanbeh berish, 50 ming eurogacha jarima, vakil yoki odil sudlovning ayrim sohalarida himoyachi sifatida ishlashni taqiqlash. bir yildan besh yilgacha bo'lgan muddatga advokaturadan chiqarib tashlash. Ishni faxriy sudda ko'rish odatda yopiq majlisda o'tkaziladi.

Germaniya advokatlar assotsiatsiyasi tashkil etilgandan beri uning qonun chiqaruvchi qo'mitalari Ijroiya kengashi va rahbariyatining faoliyatini qo'llab-quvvatlab, boyitib kelmoqda. Qonun chiqaruvchi qo'mitalar ixtiyoriy asosda faoliyat ko'rsatuvchi advokatura vakillaridan iborat. Qonunchilik qo'mitalarining vazifikasi Germaniya va Evropa darajasidagi barcha tegishli qonun loyihalari bo'yicha fikrmulohazalarini shakllantirishdir.

Fransiyada: Advokat kasb sirlarini saqlashi shart, bu ham huquq, ham burchdir. U mijoz bilan, hatto hibsga olingan kishi bilan yozishmalarida cheklanmaydi. Advokat bir ishda bir nechta mijozning maslahatchisi, vakili yoki himoyachisi bo'la olmaydi. Advokat munosib hayot kechirishi kerak. Mijozlariga nisbatan insofsiz munosabatda bo'lgan taqdirda u fuqarolik, jinoyat sodir etilgan taqdirda esa jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Qonunlar va qoidalarni, kasbiy standartlarni buzganlik, halollik, qadr-qimmat va kasbiy nazokat qoidalarni mensimaslik, hatto kasbiy faoliyatdan tashqarida ham advokat intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Intizomiy jazolar: ogohlantirish, tanbeh berish, vaqtincha (3 yilgacha) ishdan chetlashtirish, advokatlar ro'yxatidan chiqarib tashlash. Advokatlar palatasi Kengashining jazo choralarini to'g'risidagi qarorlari ustidan apellyatsiya sudiga shikoyat qilinishi mumkin. Advokatlar shaxslar (masalan, mas'uliyati cheklangan jamiyatni tashkil qilish) yoki boshqa advokat yoki advokatlar guruhi bilan hamkorlik qilish to'g'risida shartnoma tuzishi mumkin⁴.

AQSH: Qo'shma Shtatlardagi intizomiy amaliyot boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha liberal ko'rindi, bu advokatlar tomonidan turli xil kasbiy burchlarni buzishning tarqalishi va ularning tashkilotga kamroq bog'liqligi natijasidir. Demak, advokatlar tashkiloti huquqbazarlik holatini tekshirgandan so'ng izoh berishi, jarima solishi yoki advokatni a'zoligidan chiqarishi mumkin. Ikkinchisi nisbatan kam va asosan siyosiy sabablarga ko'ra qo'llaniladi. A'zolik badallarini to'lamaganlik uchun istisno juda keng qo'llaniladi. Sudlar tomonidan "sudga hurmatsizlik" yoki "noprofessional xatti-harakatlar" holatlarida yanada qattiqroq choralar qo'llaniladi.

⁴ Давид Р. Основные правовые системы современности. – М., 1988

Bunday holda, advokat nafaqat ishdan chetlatilishi, amaliyotdan mahrum etilishi yoki jarimaga tortilishi, balki ozodlikdan mahrum etilishi mumkin⁵.

Maqolamizni keying qismi esa, takliflarga qaratilgan. Advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxslardan (bundan keyingi o‘rinlarda talabgor deb yuritiladi) malaka imtihonini qabul qilish sohasidagi dastlabki taklif quyidagilardan iborat:

1. Birinchi taklif shundan iboratki, malaka komissiyasi a’zolari jahon standartlariga muofiq faqatgina advokatlar orasidan 35 yoshga to‘lgan, advokaturada 5 yillik uzlusiz ish stajiga ega bo`lgan advokatlardan toq ko`rinishida saylanishi lozim. Chunki, boshqa organlarning a’zolari advokatga nisbatan jazo qo’llashda, malaka daraja berishda yoki saylashda ishtirok etishi qaysidir ma’noda advokatlarning mustaqilligiga ta’sir o’tkazadi. Shu sababli, kommissiya faqat advokatlardan tashkil topishi darkor, shu yo`l orqali advokatlarning obrosi ham qaysidir ma’noda ortadi.

2. Ikkinci taklifimiz esa, advokatlik imtihoniga hujjat topshirish bilan bog`liqdir. Hozirgi qonunchiligidan asosan, talabgor malaka imtihonini topshirish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

malaka imtihonini topshirish to‘g‘risidagi ariza;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportining nusxasi;

oliy yuridik ma’lumot to‘g‘risidagi diplom (nusxasi olinib, asli qaytariladi);

mehnat daftarchasi (nusxasi olinib, asli qaytariladi) yoki uning ish joyida tasdiqlangan nusxasi;

talabgor to‘g‘risidagi ma’lumotlardan iborat bo‘lgan shaxsiy varaq;

talabgor stajirovka o‘tagan advokatlik tuzilmasi tomonidan berilgan tavsifnomasi;

3 x 4 sm hajmdagi (so‘nggi 12 oy ichida olingan) 2 dona rangli fotosurat;

talabgorning sudlanganligi yoki sudlanmaganligi hamda muomalaga layoqatliligi to‘g‘risida ma’lumot.

Quyidagilarni taklif qilaman: Hozirgi texnologik asrimizda, yuqoridagi ba’zi hujjatlarni qog`ozdag variantini taqdim etilishi juda ham bir o`rinli talab emas, chunki mamlakatimizda voyaga yetgan shaxslarning umumiy bir bazasi shakllantirilmoqda. Agar advokatlar palatasi tegishli davlat organlari bilan hamkorlikni yo`lga qo`yish orqali talabgorning ba’zi ma’lumotlarni faqatgina baza orqali olish imkoniyatini qo`lga kiritadi. Misol uchun: talabgorning JSH SHIRini bazaga kiritish orqali oliy yuridik ma’lumot to‘g‘risidagi diplom, mehnat daftarchasi, talabgor to‘g‘risidagi ma’lumotlardan iborat bo‘lgan shaxsiy varaq va talabgorning sudlanganligi yoki sudlanmaganligi hamda muomalaga layoqatliligi to‘g‘risida ma’lumotni olish imkoniyati qo`lga kiritiladi bu esa, albatta, buyrakratiyani oldini oladi. Bundan tashqari, buyrug`ga qo`shimcha kiritish darkor, buyrug`ning O‘zbekiston Respublikasi

⁵ О.Д. Святоцький, В.В. Медведчукю Адвокатура. Історія і сучасність.- К.: Ін Юре, 2001

fuqarosi pasporti talab qilish bandi oldida hozirgi kundagi ID-kartani ham qo'shish kerak va mehnat daftarchasini talab qiluvchi bandini davomiga electron mehnat daftarchasi yoki uning o'rmini bosuvchi hujjat so'zlarini kiritish hozirgi zamon talabidir.

3. Uchunchi taklifga o'tsak, talabgorlardan olinadigan imtihonni takomillashtirish kerak. Talabgordan hozirgi kunda quyidagicha imtihon olinadi: Malaka imtihoni barcha talabgorlar uchun bitta xonada, og'zaki va yozma shakllarda o'tkaziladi. Malaka imtihoni O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tasdiqlagan ro'yxatdagi savollardan tuzilgan imtihon biletlari asosida o'tkaziladi.

Imtihon biletlarida ko'pi bilan beshta, shu jumladan, huquqni amaliy qo'llanilishi sohasiga, ulardan kamida yarmi huquqning turli tarmoqlari nazariyasiga oid savollarni o'z ichiga olishi kerak.

Imtihon biletidagi savollarga talabgoring javoblari imtihon varaqlarida aks ettiriladi.

Talabgor o'zining imtihon biletidagi savollarga og'zaki javob beradi. Malaka komissiyasining a'zolari imtihon biletidagi savollarga aniqlik kiritish maqsadida talabgorga qo'shimcha savollar berishi mumkin.

Malaka komissiyasi a'zolari baholash byulletenida talabgoring bergan javoblarini o'n ballik tizimda baholaydi.

Fikrimizcha: Rivojlangan barcha mamlakatlarda, xususan AQSHda ham talabgorlardan olinadigan imtihonlar hozirda maxsus jihozlangan xonalarda va texnologiyalardan foydalanib o'tkazilmoqda. Juhon standartini bizning mamlakatimizda quyidagicha qo'llash mumkun: Buning uchun, advokatlar palatasi kompyuterlar bilan jihozlangan xonalarni tashkil etishi va ularni kameralar bilan jihozlashi darkor, chunki bu imtihon vaqtini real vaqt rejimida jamoatchilik nazoratini o'rnatishga imkon beradi. Bundan tashqari, inson aralashuvini oldini oladi va advokatlik imtihoni shaffof ko`rinishda o'tadi.

4. To'rtinchi taklif, savollar shakliga oid bo`lib. Hozirda talabgorlar har bir imtihon varaqasi malaka komissiyasi majlisida ishtirok etayotgan barcha komissiya a'zolari tomonidan imzolangan va imtihon varaqasining birinchi beti hududiy boshqarmaning muhri bilan tasdiqlanadigan javoblar varag`iga javobni yozadi hamda talabgor o'zining imtihon biletidagi savollarga og'zaki javob beradi. Bundan tashqari, malaka komissiyasining a'zolari imtihon biletidagi savollarga aniqlik kiritish maqsadida talabgorga qo'shimcha savollar berishi mumkin.

Taklif quyidagicha: Talabgor malaka imtihonini ikki bosqichda topshirishi kerak, birinchi bosqichda kandidat chet el mamlakatlari singari o'ziga berilgan kompyuterdagagi bir nechta tanlov savollarga javob berishi kerak bunda savollar soni o'nta bo`lishi va kandidat undan kamida sakkiz ta to`g`ri javob berishi lozim. Agar ikkita noto`g`ri javob tanlansa kompyuter avtomatik tarzda o`chishi lozim va bunday

vaziyatda, kandidat keying imtihonga faqatgina bir haftadan so`ng qo`shimcha to`lov bilan qo`yilishi maqsadga muofiq bo`ladi. Ushbu vaziyatda kompyuter imtihonidan o`tgandan so`ng 15 kun ichida keying imtihonni topshirishi darkor, aks holda qaytadan kompyuter imtihonini topshirishi zarur hisoblanishi kerak. Keyingi bosqich uning amaliy ko`nikmalarini tekshirishdan iborat bo`lishi darkor, ya`ni berilgan muommoli vaziyatga og`zaki tarzda javob beradi. Bunda muommoli vaziyat malaka komissiyasi tomonidan berilmaydi, balki komyuter orqali tasodifan tanlab beriladi. Baholash o`n ballik tizimda davom etaveradi. Ushbu imtihon turi korrupsiya va tanish bilishlikdan to`la holi hisoblanadi. Ammo, ikkinchi bosqichda imtihondan o`ta olmasa keying topshirish olti oydan keyin emas, balki bir oydan so`ng qo`shimcha to`lov bilan amalgamashirishi darkor. Albatta, bu korrupsiyani oldini olishda hamda advokatlik kasbini statusini oshishiga xizmat qiladi, chunki ushbu vaziyatda faqatgina malakali huquqshunoslardan advokatlik litsenziyasini olishga qodir bo`lib qoladi va fuqarolarning huquqlari sifatli himoya qilinadi. To`lanishi taklif etilayotgan qo`shimcha to`lovlar esa, advokatura tuzilmasini moddiy-texnik jihatini yanada oshiradi.

5. So`ngi taklif shundan iboratki, malaka komissiyasiga advokatga nisbatan jarima solish, tanbeh berish va odil sudlovnning ayrim sohalarida himoyachi sifatida ishlashni taqiqlash imkoniyatini berish darkor, chunki huddi shu yo`l bilan ba`zi advokatlar malaka komissiyasini hurmat qiladi va majburiy badallarni ham o`z vaqtida to`laydi. Bundan tashqari, malaka komissiyasining sanksiyaviy qudratini oshirish advokatni yanada ma`sulyatli bo`lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. О.Д. Святоцький, В.В. Медведчукю Адвокатура. Історія і сучасність.- К.: Іннопре, 2001.
2. Святоцький А.Д. Адвокатура и защита прав граждан. Х.: 2000.
3. Давид Р. Основные правовые системы современности. – М., 1988.
4. Саламатин И. Юрист в современном обществе. // Адвокат. – 1992. № 5-6